



## DIZARTRIYA. DIZARTRIYA TURLARI, DIZARTRIYADA OLIB BORILADIGAN PEDAGOGIK KOREKSION ISHLAR METODIKASI

*Bahriiddinova Durdonaxon Rustamjon qizi Namangan Davlat Pedagogika*

*Instituti Maxsus Pedagogika 1-kurs magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dizartriya, dizartriya turlari, dizartriya haqida olimlar olib borgan ishlar va qo'llagan metodlari, dizartriyaning sabablari va davolash usullari, denas apparatini dizartriyada qo'llash, dizartrik bolalarda olib boriladigan pedagogik koreksion ishlar tizimi haqida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** dizartriya, bulbar, psevdabulbar, miyachali dizartriya, denas apparati, ovoz, nafas organlari, korreksiya.

**Annotation:** This article describes dysarthria, types of dysarthria, works and methods used by scientists about dysarthria, causes and treatment methods of dysarthria, the use of physical therapy in dysarthria, and the system of pedagogical corrections for dysarthric children.

**Key words:** dysarthria, bulbar, pseudobulbar, cerebral dysarthria, body apparatus, voice, respiratory organs, correction.

**Аннотация:** в статье описаны дизартрия, виды дизартрии, работы и методы ученых о дизартрии, причины и методы лечения дизартрии, применение лечебной физкультуры при дизартрии, система педагогической коррекции дизартрии у детей.

**Ключевые слова:** дизартрия, бульбарная псевдобульбарная, церебральная дизартрия, аппарат тела, голос органы, дыхания коррекция.

### **Kirish:**

Ma'lumki hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar ko'p tomonlama rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan hozirgi kunda juda ko'p metodikalar va izlanishlar olib borilmoqda. Dizartriya nutq nuqsoni juda keng tarqalgan va bu bo'yicha juda ko'p ishlar korreksiyasi hozirgi kunga qadar o'r ganilmoqda. Dizartriya - bu markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishi



hisoblanadi. Dizartrianing nutq a'zolarining kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligidagi o'zgarishlar kuzatiladi.

### **Dizartriya turlari va olimlar olib borgan ishlar metodikasi.**

Dizartriya tamoyillarini Peocher tamoyillari tomonidan o'r ganib chiqilgan bo'lib ular quyidagi turlarga bo'linadi.

-po'stloqli

-po'stloqosti, xoreya, atetoz, rangsiz sharning shikastlanishi, dumli tana boshchasing shikastlanishi, postensefalatik parkinsonism, Parkinson kasalligida;

-pedenkulyar;

-suprankulear/psevdo bulbar/;

-bulbar nuclear;

-serebellyar;

-diensemfal;

-meaensemfal;

-miya nervlari shikastlanishi bilan bog'liq periferik dizartriya;

-chuqur sezuvchanlikning buzilishi bilan bog'liq dizartriya;

-miyaning aralash shikastlanishlaridagi, toksikoz, postkontuzion holatlar, dizartriya;

-epilepsiya paytidagi dizartriya;

-miasteniya paytidagi dizartriya;

-po'stloqosti ekspressiv afaziyadagi dizartriya.

L.B.Litvak dizartriya nutq buzilishlarini lokal-diagnostik ahamiyatiga o'z e'tiborini qaratdi. Dizartriya artukulatsion buzilishlaridan tashqari nutqning tembi, ritm, ravonligining buzilishi kabi nuqsonlarni ham kiritdi. Dizartriya muammosi XX asrda keng o'r ganila boshladi. Dizartriya tabiatini o'r ganish logopediya amaliyotida keng o'r ganila boshladi.

Dizartriya nutq nuqsonini diagnostik o'r ganish dizartriya muammosining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. L.B.Litvak, Ye.N.Vinarskaya tomonidan birinchi marta bosh miyasi jarohatlangan katta yoshdagi kishilarda dizartriya kompleks



neyrolingvistik tomonidan o'rganildi. Bugungi kunda bolalarda dizartriyani namoyon bo'lishi klinik, neyrolingvistik, psicho-pedagogik yo'naliishlarda o'rganilmoqda.

Bolalar serebral falajida dizartriyani to'liq va aniq tasnifini M.B.Eydinova va Ye.N.Pravdina taklif etdilar. Ularning fikricha, dizartriya bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarning 65-68% ida kuzatiladi. Bolalar serebral falajining og'ir shaklida bola umuman harakatsizlanib qoladi va bunday bolalarning deyarli hammasida dizartriya kuzatiladi.

### **Dizartriyaning asosiy belgilari va sabablari:**

Dizartriyaning asosiy belgilari bular nutqiy artikulyatsiya motorikasi va nutqiy nafas bilan bog'liq bo'lgan tovushlar talaffuzi va ovoz nuqsonlaridir. Dizartriya dislaliyadan farqli ravishda ham unli ham undosh tovushlarda farq kuzatiladi.

Dizartrik bolalarda yuz, lablar va til mushaklari harakatlanishi qiyin bo'lishi, noto'g'ri talaffuz, o'zgartirilgan membr, juda sekin yoki tez gapirish, burun yoki xirillagan ovoz, haddan tashqari yuqori yoki past hajm, noto'g'ri ritm bilan bog'liq nafas olish qiyinlashuvlari kuzatiladi. Dizartriya turli xil sabablarga ega bo'lishi mumkin. Eng tez-tez uchraydiganlar orasida asab tizimining o'zgarishi, miyada yoki embolida shikastlanishlar va o'smalar yuzini yoki tilni falajlanish kabi sabablari kiradi. Bu tug'ilishdan paydo bo'lganida, bu odatda miya yarim palsi yoki mushak distrofiyasining natijasi hisoblanadi.

### **Dizartrik bolalarda korreksion pedagogik ishlar tizimi:**

Dizartriyani bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya'ni artikulatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishslash, uni davolash, davolovchi jismoniy-tarbiya, fizioterapiya va dori-darmonlar bilan davolash ishlari olib boriladi. Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishining eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanliklarining asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatini artikulatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratish lozim.

### **Dizartrik bolalarda denas apparatini qo'llash**



Denasdan nutq terapiyasi uchun foydalanish buzilish belgilari bo'lgan joylarga bevosita ta'sir qilish orqali artikulyar organlarning funksiyalarini faollashtiradi va tiklaydi, bu nutq ko'nikmalarini tez shakllantirishga yordam beradi. Denas-davolash inson organizmiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Bunday davolash normal modda almashinuvi uchun qon aylanish tizimi yanada samarali faoliyat asab tizimi normallashadi. Denas apparati quyidagi holatlarda ishlatiladi:

- Asab tizimi kasalliklari, qon aylanish tizimi kasalliklari
- Tayanch-harakat tizimining patalogiyasi
- Nafas olish tizimi kasalliklari, yurak eshemik kasalliklari
- Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari
- immun tizimi
- Ko'z kasalliklari kabi muammolarda denas apparati qo'llaniladi.

Denas apparati dizartrik bolalarda nafas olishni to'g'rilashda, harakatlanish tizimini to'g'rilashda hamda immune tizim va asab tizimini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Shunday qilib, dizartrik bolalarda ovoz boyamlari muskullarining parezi shu narsaga olib keladiki, ovoz boyamlari to'liq va bir xilda harakatlanmaydi, ularning tebranishi esa kam bo'ladi. Shuning uchun ovoz ohangdorligi kam, kuchsiz bo'lib qoladi. Avvalo, dizartriyani oldini olish uchun nuqt apparatiga va nafas olishiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki dizartrik bolalarda ovoz boyلامи va nafas olish tizimi buzilgan bo'ladi. Bu kabi kasallikni davolashda og'izning holatini nazorat qilish, ovozni rivojlantirish, nutqiy nafasni korreksiyalash, tovushlar talaffuzini korreksiyalash muxim o'rinn tutadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1:M.Y.Ayupova Logopediya Toshkent 2007-y.
- 2:K.P.Bekker M.Sovak Logopediya 1981-y.
- 3:L.R.Mo'minova tutilib gapiruvchilar uchun qo'llanma O'qituvchi 1980-y.